

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 81'24:82-92:82-94:821.512.133

**MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA TIL O'RGANISH MASALASI VA
MILLIY TIL QADRI****ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА И ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА В
ЖУРНАЛИСТЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ****THE PROBLEM OF LANGUAGE LEARNING AND NATIONAL LANGUAGE VALUE IN
MAHMUDKHOJA BEHBUDI JOURNALISM****Ahmadjonova Oqilaxon Abdumalikovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi**Ma'murova Shahodatxon Dilshodjon qizi²**²Farg'ona davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

Maqolada Turkiston jadid ijodkorlarining yorqin vakili Mahmudxo'ja Behbudiyning xorijiy tillarni o'rganish masalasi, millat ramzi bo'lgan milliy til va uning o'z hayotidagi o'rni, qadrsizlanishi, muhofaza etilishi haqidagi maqolalari tahlil etiladi.

Аннотация

В статье анализируются статьи Махмудходжи Бехбуди, яркого представителя современных художников Туркестана, о проблеме изучения иностранных языков, национального языка, который является символом нации, и его места в жизни страны, его амортизация и его защита.

Abstract

The article analyzes articles by Mahmudhodji Behbudi, a prominent representative of modern artists of Turkestan, on the problem of studying foreign languages, the national language, which is a symbol of the nation, and its place in the life of the country, its cushioning and its protection.

Kalit so'zlar: Milliy o'zlik ramzi, til masalasi, til o'rganish, tilni soflashtirish, adabiy til, millat ravnaqi.

Ключевые слова: Символ национальной идентичности, языковой вопрос, изучение языка, совершенствование языка, литературный язык, национальное развитие.

Key words: Symbol of national identity, language issue, language learning, language improvement, literary language, national development.

KIRISH

XIX asr oxiri XX asr boshlarida millat ravnaqi va kelajagi uchun madaniyat va ma'rifatni yuksaltirishga harakat qilgan jadid ijodkorlari turkiy tilni asrab qolish va uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar. Abdulla Avloniy kabi "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur" shiori ostida harakat qilgan millatparvarlardan Turkiston jadidchilik harakatining otasi Mahmudxo'ja Behbudi o'zining publitsistik faoliyati davomida millat, jamiyat, ilm olish, axloq mavzulariga bag'ishlangan yuzlab maqolalari qatorida milliy til, uning tanazzuli va taraqqiyotiga sababchi omillarga bag'ishlangan bir qancha maqolalar ham e'lon qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Oyna" jurnalining 1913-yildagi ilk sonida M.Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqolasi nashr etilgan bo'lib, muallif ushbu maqolasida turkistonliklarning zamon bilan hamnafas bo'lishlari, har sohadaagi zamona ilmlaridan xabardor bo'lish uchun "turkiy, forsiy, arabiy va rusiy" tillarini bilishlari va bema'lol so'zlasha olish darajasiga yetishlari lozimligini ta'kidlaydi. Muallif "turkiy" deganda o'zbek tilini nazarda tutadi, chunki o'zbek tili Turkiston xalqining aksariyati so'zlashadigan tildir. "Forsiy tilini o'rganishga sabab — "madrassa va udabo tilidir. Bukung'acha Turkistonni har

tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur". [1,151] Arabiy tilni o'rganishga sabab shuki, barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar aynan shu tilda ta'lim berilar edi. Demak, madrasalarda bir paytning o'zida yuqoridagi uch tildan foydalanilgan: dars beruvchi muallim — turkiy, dars kitoblari — arabiy, kitoblarning bayon va tarjimalari esa forsiy tilda berilgan. Bu uch til Turkiston xalqi uchun qadimdan ahamiyatli bo'lib kelgan. Behbudiyning ta'kidlashicha, Turkistonda amir va xonlarning farmoyish va nomalari azaldan turkiyda bo'lgan va ayni zamonda sud mahkamalari, qozixonalarda, shuningdek, adabiyot tahrirlarida forsiy tildan foydalanilgan. Muallifning fikricha, ushbu qoidalar yaxshi, ammo yillar o'tgani sayin ushbu "usuli ta'lim va kitobatg'a ehmol paydo bo'lub, hozir bir darajag'a kelibdurki, ahli savod yoyinki ahli ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiyg'a molik yo'qdur"[1,152]. Behbudiy ilm ahlini bu falokatdan qutqarmoq uchun ta'lim usulini o'zgartirish masalasini ilgari suradi.

Behbudiy til o'rganishga sabab bo'ladigan omillarni sanab o'tar ekan, forsiy tilga yuksak baho beradi: fors shoirlarining asarlarini "qiyomatg'acha lazzati ketmaydurgan" ma'naviy xazinaga qiyoslaydi, undan foydalanish uchun yevropaliklar milliardlar sarflayotganlarini, turkiy va forsiyni tahsilsiz bilishimiz esa biz Turkiston xalqiga saodat ekanligini, shunday ekan "har turkni forsiy va har forsni turkiy bilmog'i lozim" ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu tilni mukammal bilganlar forschada bitilgan "Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, "Masnaviy"dan qanday lazzat olsa", buning barobarida turkiyda yozilgan "Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoiy, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoi zamoniyy asarini turkiy tarjimasidan" shunchalik bahramand bo'lishi mumkin.

Behbudiy yuqoridagi uch til bilan bir qatorda "rusiy" tilini ham "o'z naf'imiz uchun" bilishni lozim topadi. Yoshlarni rus-tuzem maktablarida o'qib, davlat mansablariga kirishga, rus tilini bilish orqali Vatanimizga va o'z dinimizga xizmat qilishga chaqiradi. Uning fikricha, millat boshqa xalqlar kabi rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun tijorat, sanoat va siyosatda ham ilg'or bo'lishi kerak. Buning uchun rus tilini o'rganib, zamondan va davlat qonunlaridan xabardor bo'lish kerak. Ammo bugun turkistonliklar orasida hatto millat va Vatan manfaati uchun G'arb tillarida, jumladan, rus tilida yuqori minbarlardan turib gapirishga qodir biror kishi topilmaydi. Muallif turkistonliklarga rus tilini o'rganish naqadar muhimligini dalillash uchun hadisi sharifdan namuna ham keltiradi. Xorijiy tillarni o'rganishga payg'ambarimiz alayhissalom ham buyurganlarini keltirish bu bilan aholining kofir bo'lib qolmasligini isbotlash uchun eng o'rinli dalil bo'ladi, albatta.

Behbudiy ushbu maqolasi orqali til o'rganish masalasini siyosiy masala sifatida ko'tarib chiqdi va bu millat manfaati yo'lida xizmat qilishga qodir ziyolilarni shakllantirishga yo'l ochadi, degan fikrni qayta-qayta ta'kidladi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Taraqqiyparvar ijodkorning milliy tilni saqlash, yuksaltirish mavzusidagi qarashlari 1915-yil e'lon qilingan "Til masalasi" nomli maqolasida ham aks etgan. Bu maqola 2 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda muallif turkiy tilning shevalari va lahjalari xususida o'z fikrlarini bayon etadi. Unga ko'ra, Turkiston o'lkasidagi turkiy tilning sheva va lahjalari asrlar davomida forsiy tildan juda ko'p so'zlarni o'zlashtirgan. Bunga sabab Turkistonning uzoq yillar davomida forslar istibdodi ostida qolgan hamda fors madaniyati va adabiyotining bevosita ta'siridir. Undan so'ng Arab istilosi sabab muqaddas Islom dini va "Qur'on" tili bo'lgan arabiy tilidan ham turkiy til shevalariga son-sanoqsiz so'zlar kirib keldiki, endi ularni sheva va lahjalardan chiqarib tashlash imkonsiz. Chunki asrlar davomida bu ikki tilning ta'sirida sof turkiy so'zlar xalq tili va adabiyotidan chiqib ketdi. Hatto ko'plab o'zlashtirilgan forsiy so'zlarning turkiy muqobili yo'qolib ketgan. Masalan, "shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chahorshanba, panjshanba, odina kunlarining oti kabi..." [1,184].

Behbudiyning ta'kidlashicha, turkiy xalqlarning ayrim toifalari turkistonliklardan ham ko'proq forsiy va arabiy tili ta'siriga tushgan, hatto ayrimlari "forsiy va arabiy u qadar ko'p oldilarki, tillari turkiy, forsiy va arabiydan qo'shulub, "usmonli tili" deb ataldi"[1,184]. Ushbu tilda so'zlashish, yozish va o'qib tushunish uchun uchala tilning ham adabiyot va qoidalaridan xabardor bo'lish kerak, usmonli shevasida yozilgan asarlarning aksariyatini turklarning nafaqat "kamsavodi", balki ayrim ziyolilari ham anglamaydigan darajaga kelib qolgan. Qrim va Kafkaz shevasi esa usmonli shevasiga qaraganda xiyla ozroq o'zlashtirgan bo'lsa-da, tatar matbuotining hech bir satrini forsiy yoki arabiy so'zlardan holi ko'rish mumkin emas. Hatto sof tatarcha yozish tarafdori bo'lgan

ADABIYOTSHUNOSLIK

matbuot va muharrirlar ham arabiy va forsiysiz hech narsa yozolmasliklari bu ikki tilning turkiy til shevalariga qanchalar ta'sir o'tkazganining yorqin dalilidir.

Maqola davomida Behbudiy Turkistonda yoyilgan adabiy til borasida so'z yuritar ekan, "Turkiston, Buxoro va Xivada har kim o'z lahjasig'a muvofiq yozsa ham, bir-birig'a qarib (yaqin)" bo'lib, "ahli savod", ya'ni, ziyolilarning til birligi – adabiy tili bir ekanini ko'rsatib beradi.

"Til masalasi" maqolasining ikkinchi qismi turkiy tilni soddalashtirish va soflashtirish, barcha turkiy xalqlar uchun yagona adabiy til yaratish masalasiga bag'ishlanadi. Behbudiy maqolaning kirish qismidanoq bu masalani yoritishda xolisona yondoshadi. O'z maqsadini yoritishni, dastlab sheva va lahja bilan adabiy til o'rtasidagi farqni ko'rsatishdan boshlaydi. Misol tariqasida Volgabo'yi tatarlari va Kafkaz musulmonlarining faoliyatini keltiradi. Unga ko'ra, ushbu xalqlarning matbuot tili "ko'cha tili" dan bir necha daraja oliy va bu har bir gazeta o'qiydigan ziyoliga ma'lum. Masalan, "Vaqt", "Sho'ro", "Yulduz" jurnallarining dastlabki yillarda nashr qilinganlari va hozirgilari taftish qilinsa, hozirgilari tobora adabiylashib borayotgani ko'rinadi. Bu xulosalar Behbudiyning turkiy matbuotni doimiy ravishda kuzatib borishi bilan bir qatorda, til siyosati bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borganidan ham dalolat beradi.

Maqola davomida Behbudiy tilni soddalashtirish, xalqning har bir a'zosi tushunadigan shaklga keltirish fikrini qo'llab quvvatlaydi, ammo tilni soflashtirish, ya'ni tilni arabcha, forsha so'zlardan tozalab, ularning muqobilini qidirib topish va tilga tatbiq etish masalasini imkonsiz deb baholaydi. Shuningdek, boshqa tillardan yangi kirib kelayotgan so'zlar gazeta va jurnallarda istalgan shaklda qo'llanilishi masalasiga to'xtaladi: "Hatto bu zamonda fan va hunar taraqqiy etgani uchun va yangi chiqqon begona lug'atdagi ismlik nimarsalarg'a turkiy ism taqadurgon jamiyatlar barpo etib, turkiy tilimizg'a xizmat etaturgon kishilarni bizg'a yo'qligi uchun begona tildagi ismlar ila ko'p nimarsalarni yozmoqg'a majbur bo'larmiz"[1,187]. Behbudiyning fikricha, bu muammodan hatto taraqqiy etgan millatlar ham hamon qutulgani yo'q. Masalan, Al-Xorazmiyning arab tilida yozilgan "Aljabr" asarini taraqqiy etgan millatlar o'z tillarida "j" tovushi bo'lmaganligi uchun "Algebra" deyidilar. Bu fikrlari bilan muallif tilga yangi o'zlashgan so'zlarni tartibga soladigan ilmiy jamiyat tashkil etish masalasini ko'tarib chiqadi.

Behbudiy maqola davomida tilni soflashtirish masalasida "Sadoyi Turkiston" gazetasi chiqarayotgan maqolalarni tahlil qilib, gazetaning bu harakatini "bu ko'p yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandir" deb baholaydi. Sababi, bir necha asrlar davomida fors va arab tili, madaniyati, saltanati ta'siri ostida qolgan turkiy tilni yana bir necha asrlar davomida ushbu tillarning ta'siridan chiqarishga berilsak, ma'naviy, moddiy va fanniy jihatdan mahkum millatlarning tili bo'lgan tilimizga va millatimizga yana boshqa taraqqiy etgan millatlar o'z so'zlari bilan hujum qiladilar.

Behbudiy fikrlarini davom ettirar ekan, tilni soflashtirish borasidagi muammolarni bartaraf etish uchun imkon boricha arabcha va forsha so'zlardan kamroq foydalanishni ma'qul deb biladi. Masalan, "ulum, funun, ulamo, quzzot" kabi arabcha ko'plikdagi so'zlarni "ilmlar, fanlar, olimlar, qozilar" kabi turkiy ko'plikda yozishni hamda "Sadoyi Turkiston" gazetasida berilayotgan "kurrai arzda yashamakda bo'lgan har millatni o'ziga maxsus bir lisoni milliysi vordur" kabi jumalarni imkon qadar turkiylashtirishni taklif qiladi. Ammo barcha ilm-fan va dinga oid istiloh va iboralarning turkchadan muqobilini qidirib topish — o'zni charchatish va matbuotni zoye qilishdan boshqa narsa emas degan fikrida qat'iy qoladi.

"Behbudiy "Til masalasi" maqolasining so'ngida hech qaysi bir til faqatgina o'z so'z boyligi bilan taraqqiy eta olmasligi, boshqa tillardan yangi so'zlar qabul qilish hisobiga rivojlana olishini ta'kidlash bilan bir qatorda, tilni soflashtirish bilan vaqtni bekor sarflamasdan uning o'rniga "kelar zamon uchun hozirlanayluk, o'tgan zamon uchun emas" degan qat'iy fikrni o'rtaga tashlaydi"[3,34]. Bundan tashqari, u Turkistonning turli hududlari shevalari bir-biri bilan farq qilgani uchun ushbu shevalarda she'r yoki boshqa asarlar yozish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydi.

XULOSA

Xulosa sifatida Behbudiy adabiy til yaratish yo'lidagi asosiy muammo va to'siq millat onalarining savodsizligini keltiradi. "Taraqqiy etgan millatlar onalari o'qutar ekan, biz avval onamizni o'qutub, anga til o'rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandur"[1,190]. Behbudiy ushbu fikrlari bilan til, ilm-fan va jamiyat rivoji millat onalarining ilmi, bilimiga bog'liq

ekanligini ta'kidlaydi hamda qizlarni maktablarga berib, ularni savodli qilish masalasini ko'tarib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 2009.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Yoshlar'ga murojaat. T.: Ma'naviyat, 2022.
3. Abdirashidov Z. Sh. 2020. "Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslikka oid tadqiqotlariga doir". O'zbekiston: til va madaniyat /2: 24–37.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври адабиёти. Т.: Маънавият, 2002.
5. navoiy-uni.uz
6. uz.m.wikipedia.org
7. popularscience.com